

Konstitutsiyaviy huquq asoslari fanidan loyiha ishi.

Mavzu: “Bu mening Konstitutsiyam”(ushbu loyiha ishi O‘zbekiston Konstitutsiyani qabul qilinganligining 32 yilligiga bag‘ishlanadi)

Eslatma: *Loyiha ishi mavzusini o‘quvchilar o‘zlari ham tanlashlari mumkin.*

Format: Loyiha ishi (videorolik, slayd, so‘rovnomalar o‘tkazish, tadqiqotlar olib borish va boshqalar tavsiya etiladi)

Fanlararo integratsiyalashuvi: Tarix, tarbiya va informatika ...

Muammo:

– Fuqarolarda Asosiy qonun haqida yetarli ma’lumotlar mavjud emasligi;

Maqsad:

– huquqiy savodxonlikni rivojlantirish;
– hamkorlikda ishlashni rivojlantirish;
– tanqidiy tahlil qilishni shakllantirish va rivojlantirish.

Loyihani amalga oshirish uchun qo‘yiladigan talablar:

- a) o‘quvchilar amaldagi Konstitutsiyani o‘rganib chiqadilar;
- b) Konstitutsiyani targ‘ib qiluvchi tarqatmalar tayyorlaydilar;
- c) tayyorlangan tarqatmalar katta tanaffusda maktab o‘qituvchi va o‘quvchilariga tarqatiladi.

Loyiha ishi bo‘yicha o‘quvchilarda shakllanadigan ko‘nikmalar:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarni hurmat qilish;
- huquqiy ong va huquqiy tafakkurni rivojlantirish;
- huquqiy davlatda Konstitutsyaning o‘rnini bilish;
- fuqarolik jamiyati va uning belgilari haqida tushunchaga ega bo‘lish va unga munosabat bildirish;
- konstitutsiya normalarini bilish;
- xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslarini bilish;
- bir-birini takrorlamaydigan g‘oyalarni tatbiq qilish;
- kreativlik;
- nutq madaniyati;
- jamoa bilan ishslash ko‘nikmalari (jamoada 4-7 nafar o‘quvchi ishtirok etishi tavsiya etiladi).

Mavzuni ochib berishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar:

O‘zingizni huddi volontyordek Konstitutsiya targ‘ibotchisi guruhining a’zosi sifatida his qiling. Targ‘ibot ishlarida asosiy qonunning ustuvor jihatlarini targ‘ib qiling. Konstitutsiyaviy savodxonlikni oshirish uchun platforma ishlab chiqing.

Loyiha ishining bosqichlari (xarita)

O‘qituvchiga tavsiyalar:

- jamoalarni shakllantirish;
- muammoli topshiriqlarni bayon qilish;
- baholash mezonini e’lon qilish;
- bajarish muddatini belgilash (loyiha ishi uzoq muddatda bajariladi).

O‘quvchiga tavsiyalar:

- ma’lumot to‘plash;
- tarqatmalarni shakllantirish;
- platforma ishlab chiqish;
- tahrirlash;
- o‘qituvchi tavsiyalarini olish;
- qayta tahrirlash;
- taqdim etish.

Jamoalarni shakllantirish:

- o‘qituvchi tomonidan shakllantirish;
- qur’a tashlash orqali shakllantirish;
- o‘quvchilar tomonidan shakllantirish (ayrim o‘quvchilarning jamoalarga qo‘shilmay qolish holatiga yo‘l qo‘ymaslik kerak).

Eslatma: O‘quvchilar oldindan jamoalarga bo‘linib loyiha ishiga tayyorlanadilar. BSB – I kuni loyiha ishini taqdim etib baholanadilar.

Loyiha ishini baholash mezonlari		
1	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlarining maqsad bilan uyg‘unligi	10 ball
	– Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan bo‘lsa	9-10 ball
	– Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, ammo juz’iy kamchiliklar sabab maqsaddan biroz og‘ish kuzatilgan bo‘lsa	4-8 ball
	– Loyihaning bajarish bosqichlari (xaritasi)da ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat loyiha maqsadining yoritilishida aks etgan bo‘lsa	1-3 ball
2	Muammo va yechim	10 ball
	– Huquqiy savodxonlik muammosi to‘g‘ri aniqlangan va shu muammoning yechimi uchun xizmat qiladigan reja ishlab chiqib valontyorlik faoliyati orqali targ‘ibot ishlari amalgaloshirilgan bo‘lsa	9-10 ball

	<ul style="list-style-type: none"> – Ishlab chiqilgan reja insonlarni huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan, ammo muammo yechimiga qisman yondoshilgan bo‘lsa 	4-8 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Volontyorlik faoliyati uchun tashabbus bo‘lmasa, topshiriqlarni bajarishda mas’uliyatsizlik qilinsa 	1-3 ball
3	Ma’lumotlarning huquqiy ahamiyatga ega ekanligi va qonunlardan foydalanilganligi	10 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Konstitutsiya qoidalari to‘liq o‘rganilgan, tarqatma materiallari va yaratilgan platformada O‘zbekiston Konstitutsianing mazmun va mohiyati to‘liq yoritilgan shuningdek, qonun ustuvorligi aks etgan, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa 	9-10 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Konstitutsiya qoidalari to‘liq o‘rganilmagan, tarqatma materiallari va yaratilgan platformada ham O‘zbekiston Konstitutsianing mazmun va mohiyatiga yondashilgan, ammo to‘liq yoritilmagan bo‘lsa 	4-8 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Konstitutsiya qoidalari yotilmagan, uning mazmun va mohiyati to‘liq ochib berilmagan bo‘lsa 	1-3 ball
4	Taqdimotchining shaxsiy xislatlari	10 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Loyiha ishi natijalarini taqdim etishda nutqiy savodxonligi yuqori bo‘lib, aniq va lo‘nda bayon etilsa 	4 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Jamoa bilan hamkorlikda ishlagan bo‘lsa 	3 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Xulq atvor qoidalariiga amal qilib, vatanparvarlik ruhida yondoshilgan bo‘lsa 	3 ball
5	Tahlil va xulosa	10 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – To‘g‘ri tahlil qilingan bo‘lsa 	4 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Tahlil natijalari bo‘yicha xulosa chiqarilgan bo‘lsa 	4 ball
	<ul style="list-style-type: none"> – Tahlil va xulosa natijalarini ijtimoiy hayotda qo‘llash mumkin bo‘lsa 	2 ball
JAMI:		50 ball

